

Xorijda istiqomat qilayotgan yosh vatandoshlarning respublika davlat oliy ta'lif muassasalariga kirishi uchun davlat grantlari taqdim etish bo'yicha muvaqqat tartib

1-bob. Umumiyligida qoidalar

1. Ushbu tartib respublika davlat oliy ta'lif muassasalarining o'zbek tili va adabiyoti, tarix, madaniyat, san'at va hunarmandchilik yo'nalishlariga xorijda istiqomat qilayotgan yosh vatandoshlar (keyingi o'rirlarda - vatandoshlar) uchun davlat grantlari taqdim etish tartibini belgilaydi.
2. Vatandoshlar uchun davlat grantlari bakalavriat ta'lif yo'nalishlarining kunduzgi ta'lif shakliga taqdim etiladi.
3. Vatandoshlar uchun davlat grantlari taqdim etiladigan bakalavriat ta'lif yo'nalishlari ro'yxati hamda davlat granti o'rirlarining tanlov yo'nalishlari kesimidagi soni har yili Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining takliflariga asosan O'zbekiston Respublikasi ta'lif tashkilotlariga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasi (keyingi o'rirlarda - Davlat komissiyasi) tomonidan tasdiqlanadi.
4. Vatandoshlar uchun davlat grantlariga o'tkaziladigan tanlovlarda (keyingi o'rirlarda - maxsus tanlovlardan) ishtirok etish uchun talabgorlarga quyidagi talablar belgilanadi:

a) shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar asosida o'zi yoki ota-onasi yoxud bobo-momosi:

etnik, til va madaniy-tarixiy nuqtayi nazardan o'zini o'zbek yoki qoraqalpoq sifatida identifikasiya qilgan chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'limgan shaxs bo'lishi;

- O'zbekiston hududida tug'ilib, istiqomat qilgan, biroq, hozirda xorijda doimiy istiqomat qilayotgan chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'limgan shaxs bo'lishi;
- b) xorijiy fuqaro sifatida Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan ro'yxatdagi bakalavriat ta'lif yo'nalishlaridan biriga abituriyent sifatida ro'yxatdan o'tib, suhbat natijalariga ko'ra talabalikka tavsiya etilgan bo'lishi;
 - v) 30 yoshga to'limgan bo'lishi;
 - g) o'zbek tilini bilishi lozim

2-bob. Talabgorlarning hujjatlarini o'rganish

5. Vatandoshlar uchun taqdim etiladigan davlat grantlariga talabgorlardan har yili 5-15 sentyabrgacha muayyan oliy ta'lif muassasalari tomonidan tegishli ta'lif yo'nalishlaridan biriga arizalar qabul qilinadi.
6. Oliy ta'lif muassasalari tomonidan arizalari qabul qilingan talabgorlar ro'yxati va ular to'g'risidagi ma'lumotlar (fuqaroligi, pasport yoki ID nusxasi, tanlangan oliy ta'lif muassasasi, ta'lif yo'nalishi nomi va boshqalar) har yili 20-sentyabrgacha Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligiga taqdim etiladi.
7. Ro'yxati shakllantirilgan talabgorlarning arizalari (ma'lumotlari va hujjatlari) har yili 5-oktyabrgacha Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligida tashkil etiladigan ekspert komissiyasi tomonidan o'rganib chiqiladi.

Ekspert komissiyasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, “Vatandoshlar” jamoat fondining malakali mutaxassislari hamda oliy ta’lim muassasalarining tajribali professor-o‘qituvchilaridan iborat tarkibda tashkil etiladi.

8. O‘rganish natijalariga ko‘ra, ma’lumotlari (hujjatlari) belgilangan talablarga mos deb topilgan talabgorlar ro‘yxati Ekspert komissiyasining bayoni bilan tasdiqlanadi va tanlovgaga tavsiya etiladi.

3-bob. Maxsus tanlovlarni o‘tkazish

9. Ekspert komissiyasi tomonidan tanlovgaga tavsiya etilgan talabgorlar ro‘yxati Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan har yili 10-oktyabrga qadar Bilim va malakalarni baholash agentligi, tegishli oliy ta’lim muassasalariga maxsus tanlovlarni o‘tkazish uchun yuboriladi.

10. Maxsus tanlovlar talabgorlar tomonidan tanlangan bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga kirish fanlaridan o‘tkaziladi. Bunda fanlar majmuasiga ko‘ra:

a) kirish imtihonlari tarkibida kasbiy (ijodiy) imtihon mavjud bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari uchun har yili 15-oktyabrga qadar tanlangan oliy ta’lim muassasasi tomonidan kasbiy (ijodiy) imtihon o‘tkaziladi va natijalar Bilim va malakalarni baholash agentligiga taqdim etiladi;

natijalari oiiy ta’lim muassasalari tomonidan taqdim etilgan talabgorlar uchun Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan har yili 25-oktyabrga qadar test sinovlari o‘tkaziladi;

b) kirish imtihonlari test shaklidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari uchun Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan har yili 25-oktyabrga qadar test sinovlari o‘tkaziladi.

11. Maxsus tanlovlar natijalari Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan har yili 30-oktyabrga qadar Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga taqdim etiladi.

12. Maxsus tanlovlar natijalariga ko‘ra ballar ketma-ketligi bo‘yicha eng yuqori natija qayd etgan talabgorlar tanlov yo‘nalishlari kesimidagi o‘rinlarga muvofiq davlat granti sovrindori hisoblanadi.

13. Vatandoshlar uchun taqdim etilgan davlat grantlari sovrindorlari ro‘yxati Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

14. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyrug‘i oliy ta’lim muassasalarining sovrindor talabalarni davlat granti asosida talabalikka qabul qilinganlar uchun umumiy tartibdagagi stipendiyalar tayinlanmaydi.

To‘lov shartlaridan boshqa holatlar xorijiy fuqarolar uchun belgilangan tartiblar asosida amalga oshiriladi.

15. Ajartilgan davlat granti o‘rinlariga talabalikka qabul qilinganlar uchun umumiy tartibdagagi stipendiyalar tayinlanmaydi.

4-bob. Yakunlovchi qoidalar

16. Ushbu Tartibni qo‘llashda yuzaga keladigan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

17. Mazkur Tartib talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

**Mirzo Ulu’bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetiga vatandoshlar
uchun davlat grantlari taqdim etiladigan bakalavriat ta’lim
yo‘nalishlari ro‘yxati hamda davlat granti o‘rinlarining tanlov
yo‘nalishlari kesimidagi taqsimoti**

T/r	Tanlov yo‘nalishlari	Bakalavriat ta’lim yo‘nalishi shifri, nomi	Kvota soni
1	O‘zbek tili va adabiyoti	60230100 - Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili	10
2	Tarix	60220300 - Tarix	5